

SHAXSNING XUQUQIY MADANIYATI VA XUQUQIY ONGINI TARBIYALASH

**Saydullayeva Sug'diyona Sayitqulovna**

*Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi*

**Xayrullayeva Shaxzoda Ziyodulla qizi**

*Guliston davlat universiteti*

**Аннотация:** *Ushbu maqolada biz tanlab olgan xuquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lida fuqarolarning xuquqiy madaniyatini yuksak darajada shakllantirish va ularning konstitutsiyaviy xuquqlari va erkinliklarini kafolatli ta'minlash muammolari yoritilgan.*

**Калит сўзлар:** *Xuquqiy madaniyat, xuquqiy tarboya, ma'naviyat, ma'daniyat*

**KIRISH**

Xuquqiy madaniyat tushunchasini to'la anglab etish uchun madaniyat nima ekanligini taxlil etish maqsadga muvofiqdir. Zero, "Xuquqiy madaniyat ijtimoiy ong shakllaridan biri, jamiyat umumiy madaniyatining ajralmas, o'ziga xos qismidir". Madaniyat kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan shakllangan ijtimoiy xodisa bo'lib, uning ob'ekti ham, sub'ekti ham insondir.

Ma'naviy madaniyatning qamrovi bexad keng bo'lib, u insonlar tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarni, ijtimoiy ongning axloqiy, xuquqiy, diniy, falsafiy va boshqa shakllarini, tafakkurning barcha shakllari va funktsiyalarining butun soxasini, jamiyatdagi g'oyalar va ta'limotlarni, badiiy asarlar, estetik va xuquqiy qarashlarni qamrab oladi. Bundan tashqari, ma'lumot berish, ta'lim-tarbiya, falsafa, din, xuquq, etika, estetika, san'at va adabiyot singarilar ham ma'naviy madaniyatga kiradi.

Ma'naviy boyliklar olimlar, musavvirlar, bastakorlar, shoir va yozuvchilar, xuquqshunos, nazoratchilar, xullas, xalq ommasi tomonidan yaratiladi va iste'mol qilinadi. Yana shu fikrni qayd etish lozimki, ijtimoiy ong shakllarining barchasi insoniyat jamiyati paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan emas. Masalan, xuquq davlatning paydo bo'lishi bilan vujudga kelib, u inson xuquqlari va erkinliklari mezonini belgilashda, ijtimoiy adolatni ta'minlashning samarali vositasi sifatida maydonga chiqadi fuqarolarning, butun jamiyatning ilg'or ijobiy talab - extiyo'jlarini va manfaatlarini qondirishga xizmat qiladi.

Biz tanlab olgan xuquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lida fuqarolarning xuquqiy madaniyatini yuksak darajada shakllantirish va ularning konstitutsiyaviy xuquqlari va erkinliklarini kafolatli ta'minlash muammolari katta ahamiyat kasb etmoqda. Xuquqiy madaniyat, yuqorida ta'kidlaganimizdek, umumiy madaniyatning ajralmas qismidir. Xuquqiy madaniyat, eng avvalo, jamiyat va shaxs umumiy madaniyatining ko'rsatkichidir. Xuquqiy madaniyat jamiyatda qonuniylikni mustaxkamlashga, adolatning tantana qilishiga, insonning erkin yashashi, mexnat qilishiga, bilim olishiga, erkin fikrlashiga imkon beradigan yuksak axloqiy muxit yaratish uchun zaruriy omildir. Jamiyatda qonun ustuvorligiga xuquqiy madaniyat

orqaligina erishish mumkin. “Xuquqiy madaniyat” g’oyat keng va chuqur ma’noli tushunchadir.

“Jamiyatning xuquqiy madaniyati” tushunchasi ko’pincha xuquqiy vokelikning qimmatli bo’lagi, uning olg’a qarab rivojlanishining darajasi sifatida namoyon bo’ladi. U ilg’or va ijobiy ma’rifatparvarlikning xuquqiy qadriyatlarini qamrab oladi.

Asosiy qism: Professorlar U. Tadjixonov va A. Saidovlarning talqiniga ko’ra, jamiyatning xuquqiy madaniyati xuquqiy ongning, qonuniylikning, qonunlarni takomillashtirishning va xuquqiy tajribaning muayyan darajasini aks ettiradigan xamda insoniyat xuquq soxasida yaratgan butun boylklarni qamrab oladigan ijtimoiy madaniyatning bir turidir.

Shaxsning Xuquqiy madaniyati - jamiyat xuquqiy madaniyatining zaruriy shart-sharoiti va ilk bunyodkori, uning maqsadi va tarkibiy qismidir. Shu bilan birga u shaxsning o’zining qonuniy faoliyat darajasida aks etuvchi xuquqiy rivojlanishining jixati xamdir. U jamiyat xuquqiy xolati muayyan darajasiga bog’liq xolda uning muxim negizini tashkil etadi va uning asosida yotadi. Shaxsning xuquqiy madaniyati amaliyotda uning ijobiy xuquqiy ongini taqozo qiladi. U xuquq soxasida jamiyatning progressiv yutuqlariga mos keluvchi ijodiy faoliyatni tashkil etib, natijada shaxsning doimiy xuquqiy boyishi ro’y beradi.

Shunday qilib, shaxsning va jamiyatning xuquqiy madaniyati umuminsoniy qadriyatlar tushunchalarining va insoniyat umumdemokratik yutuqlarining muxim natijasidir. Xuquqiy madaniyat - xuquqiy davlatning ajralmas qismidir.

Mustakillikka erishgandan keyin respublikamizda xam xuquqiy madaniyatni shakllantirish demokratik qadriyatlar, g’oyalar bilan boyidi xamda xuquqiy demokratik davlat ko’rishni o’zining maqsadi deb e’tirof etdi.

Xuquqiy davlatni shakllantirish vazifasini yuksak xuquqiy madaniyatsiz amalga oshirib bulmaydi. Xuddi shuningdek, xuquq o’ziga munosib oliy qadriyat o’rnini olmas ekan, demokratik fukarolik jamiyatini yaratib bo’lmaydi. Xozirgi vaqtda xalqaro xuquqning jaxonda tan olingan printsiplari va normalarining milliy xuquqdan ustunligi e’tirof etilmoqda, bu bizning xuquqiy madaniyatimizni barcha ilg’or va taraqqiyparvar o’zgarishlar uchun ochiq qilmoqda, xalqaro xuquqda o’z ifodasini topgan umuminsoniy qadriyatlar va ideallarni xuquqiy madaniyatimiz rivojlanishi uchun mezon va muljal sifatida tasdiqlamoqda. Xuquqiy madaniyatning taraqqiy etishi jaxon xuquqiy tarixini xulosalovchi keng yo’ldir.

Xuquqiy ong xuquqiy madaniyatning nihoyatda muxim tarkibiy qismlaridan biri bo’lib, u eng avvalo odamlarning qonunga munosabatlarini ifodalovchi qarashlari va e’tiqodlari, intilishlari va tafakkurlaridan iboratdir. Xuquqiy ong darajasi fuqarolarning yangi qonunlar qabul qilish, davlat organlarining qonunni qo’llash, fuqarolarning xuquq va manfaatlarini ximoya qilish faoliyati bilan bog’lik fikrlari va kayfiyatlarini, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik xamda iqtisodiy o’zgarishlarga munosabatini belgilaydi. Xuquqiy ong jamiyatning, turli ijtimoiy guruxlarning ob’ektiv ravishda kelib chiqqan extiyojlari va manfaatlarining bevosita ta’sirida shakllanadi, o’zgarib turadigan ob’ektiv sharoitlar va jarayonlar ta’siri ostida

doimiy ravishda rivojlanib boradi. Demokratik xuquqiy davlatni va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida, odamlarning eskicha psixologiyasini o'zgartirib, ularda yangi xuquqiy ongni shakllantirishimiz lozim. Shunday bo'lsinki, xar bir kishi inson erkinliklari ayni vaqtda muayyan burch, majburiyat va mas'uliyat ekanligini chuqur xis etib tursin.

Yuqori darajadagi xuquqiy ongni shakllantirishga qaratilgan faoliyatni o'rganish unda asosiy e'tibor xuquqiy bilimlarni tarqatishga qaratilayotganligini ko'rsatmoqda. Ayni paytda xuquqiy tarbiyaning qonunga itoatkor qonuniy xatti-xarakatni shakllantirishdan iborat muxim maqsadi chetda qolmoqda. Buning ustiga bugungi sharoitda qonunga itoatkorlikning o'zi xam xuquqiy tarbiyaning aniq maqsadi bo'la olmaydi.

Shaxsning xuquqiy madaniyati, xuquqiy ongni, aniq maqsadni ko'zlab tarbiyalash natijasi, uning eng yuqori bosqichidir.

Xuquqiy ong o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega. Ular:

1. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uning tug'ri yo'lini topish kerakligini anglash.
2. Amaldagi qonun xujjatlarining mavjud ijtimoiy munosabatlarga mos kelish-kelmasligini aniqlash va baxo berish.
3. Xuquqiy qoidalarni o'rgatish va amalda tatbiq qilishning davlatga aloqador vazifa ekanligini anglash.

Xuquqiy ong ayni paytda fuqarolarning amaldagi xuquqiy qoidalarga va qonunchilikka munosabatini ifodalovchi qarashlari, muloxazalari va tasavvurlari xamdir. Xuquqiy ong qoidalarga nisbatan xosil bo'lgan to'g'ri va tasavvurlar bilan cheklanmaydi. Ushbu tushuncha xuquqiy idrok, xuquqiy normalar talablarni xis ilish, fuqarolarning o'z xatti-xarakatlariga xuquqiy baxo berishi kabi xususiyatlarni xam o'z ichiga oladi.

Xuquqiy madaniyat - xuquqiy ongning maxsuli. Xuquqiy ong rivoj topgan jamiyatda xuquqiy madaniyat yuksalishiga imkoniyat yartiladi. Jamiyatdagi qonun-qoidalarning rivojlanishi, xuquqiy tartibotning o'rnatilishi, xuquqiy ongga botiq bo'lsa, ushbu qonun-qoidalarni amaliyotga tug'ri tatbiq etilishi, ularga rioya qilinishi, qonuniylik va xuquqiy tartibotning tantana qilishi, xuquqiy madaniyat qaror topishiga botiq. Ammo qabul qilingan qonunlarning ijro etilishi, xayotda ularga rioya qilinishini ta'minlash murakkab xolatdir.

Demak, jamiyatda yuzaga kelayotgan muammolarni xal etishga qaratilgan qonun-qoidalarning to'siksiz amalga oshishi xuquqiy madaniyatning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Axolining xuquq xaqidagi tushunchasi, qonunga xurmat, ishonch va unga amal qilishi "Xuquqiy madaniyat" tushunchasining mazmunini tashkil etadi. Qonun va amaliyot bo'lmagan joyda xuquqiy madaniyat mavjud bo'lmaydi. Shunday ekan, Xuquqiy madaniyat shakllanganligi amaldagi qonun-qoidalarning bajarilishi, xayotga tatbiq qilinishi, ularga rioya qilish bilan birgalikda mavjud bo'ladi.

Xuquqiy madaniyat xayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatadi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruxlarning jipslashuviga ko'mak bo'lib, jamiyatning yaxlitligini xamda batartibligini ta'minlaydi va mustaxkamlaydi.

Xuquqiy tarbiya - jamiyat a'zolari xatti-xarakatlarining yurish- turish madaniyatiga, ongiga, muntazam va masadgqa muvofik ta'sir etish jarayonidan iborat. Bu jarayonda fuqarolarning muayyan xuquqiy bilim darajasiga ega bo'lishiga erishish maqsad qilib qo'yiladi.

Xuquqiy tarbiyaning asosiy maqsadi: qonun va xuquqqa bo'lgan xurmatni, shaxsiy e'tiodidan kelib chiqadigan qonunga itoatkorlikni shakllantirishdir. Bunda xuquqiy muassasalar va ommaviy axborot vositalari katta rol o'ynaydi.

Xulosa: Xuquq ijtimoiy taraqqiyot maxsuli bo'lib, jamiyat xayotida, rivojida ma'lum muayyan qonun-qoidalari asosida, ular yordamida tartibga solinadi. Shu bois, jamiyat va xuquq bir-birini taqozo etuvchi tushunchalardir, boshqacha aytganda, qayerda jamiyat bo'lsa, o'sha joyda xuquq xam mavjuddir. Xuquqning vazifasi jamiyatdagi barcha xuquq sub'ektlari uchun majburiy Xuquqiy tartibni o'rnatish va uni saqlab turishga qaratilgandir.

Yuqorida ta'kidlanganlardan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

1. Xuquqiy madaniyat g'oyat keng va chuur ma'noli tushunchadir. Aytish kerakki, uning ijtimoiy axamiyati xuquqning ijtimoiy munosabatlarga me'yoriy ta'siri bilangina cheklanmaydi. Umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi xisoblanmish xuquqiy madaniyat xayotning turli soxalarida insonlar ongining shakllanishiga, ularning faoliyatiga bevosita va xar tomonlama ta'sir etadi.

2. Jamiyatda, ijtimoiy ongda xuquqqa qadriyat sifatida qarashni xar bir shaxs ongida shakllantirish orqaligina xuquqiy davlatga xos bo'lgan qadriyatlarga:ijtimoiy adolat, insonparvarlik, erkinlik, tenglik,oshkoralik va boshqa demokratik ideallarga (yuksak orzularga) erishish mumkin bo'ladi. Bunda xuquq umumbashariy ideallarning ruyobga chiqishi uchun shart-sharoit yaratadi. Xuquqiy madaniyat o'zining qanday ko'rinishida namoyon bo'lishidan qat'iy nazar, doimo xuquqqa bo'lgan ana shunday munosabatga asoslanishi kerak.

3. Xuquqiy madaniyat xar bir shaxsning, avvalo, o'z xuquq va majburiyatlarini yaxshi bilishi, ularni xayotda tug'ri qullay olishi, xususan, xuquqiy vositalar yordamida o'zini ximoya qila olishi uchun zarur. Fuqarolar o'z xuquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqalarning, shuningdek, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, xuquqlari va erkinliklariga putur etkazmasliklari shart.

4. Yuksak xuquqiy madaniyatni shakllantirishda, fuqarolarning xuquq va erkinliklarini amalga oshirishda shaxs va davlatning o'zaro mas'uliyati printsipi aloxida o'rin tutadi. O'zaro mas'uliyat printsipining mavjudligi va qonuniy asoslanganligi xar bir shaxsning davlat oldida, davlatning esa xar bir fuqaro oldida mas'uliyat xis etishini ta'minlaydi. Jamiyatda xuquqning, xuquqiy madaniyatning beqiyos axamiyatga egaligi shundaki, xuquq va yuksak xuquqiy madaniyat asosidagina insonparvar, demokratik, xuquqiy davlat barpo etish va ilg'or jamiyat sari borish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: 2021-yil
2. Davlat va Huquq nazariyasi: O.Qoriyev 2018-yil
3. Mamuriy huquq: B.Musayev, D.Artikov, B.Qosimov 2020-yil
- 4.<http://www.my.gov.uz>
- 5.<http://www.lex.uz>
- 6.Karshiyevich, S. K., & Karshiboyevna, T. G. (2024). TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI. PEDAGOG, 7(11), 11-14.
- 7.Tukhtamishova, G. K., & Samatova, M. U. (2024). STUDYING THE INFLUENCE OF CASEIN ON QUALITY INDICATORS AND TECHNOLOGICAL CHARACTERISTICS. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 3(2), 1-4.
8. Tukhtamishova, G. K., & KA, S. (2024). BIOLOGICAL IMPORTANCE OF MILK PROTEIN COMPONENTS IN THE ORGANIZATION OF RATIONAL NUTRITION OF THE POPULATION OF OUR REPUBLIC. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(21), 97-101.
9. Karshiyevich, S. K., & Karshiboyevna, T. G. (2024). TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI. PEDAGOG, 7(11), 11-14.